

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10823784>

ODAM SAVDOSI MUAMMOSI YECHIMLARIGA PSIXOLOGIK YONDASHUV XUSUSIYATLARI

D.A.Maxmudova

Alfraganus universiteti
dotsent PhD

ANNOTATSIYA

Odam savdosi qurbanlari og‘ir kechinmalar tufayli beqaror salbiy fikrlar va his-tuyg‘ularga ega bo‘lib, atrofidagi vaziyatlarning haqiqiy holatini aks ettirmaydi; odam xavotirni boshdan kechiradi, qo‘rquvga duchor bo‘ladi, o‘zini past baholaydi, qadrsizlik va aybdorlik tuyg‘ularidan aziyat chekadi. O‘ziga nisbatan depressiv norozilik hissi turli xil og‘riqli ko‘rinishlar, vaqtiga vaqtiga bilan paydo bo‘ladigan o‘z joniga qasd qilish fikrlari, o‘z joniga qasd qilish harakatlari yoki o‘z joniga qasd qilishning maxsus rejasi bilan kuchayishi mumkin. Maqolada psixolog maslahatchining odam savdosi qurbanlari bilan psixoterapevtik faoliyati tahlil qilinadi.

Tayanch iboralar: konsultant shaxsi, xavotirlik, shaxs, emotsiya, stress, ta’sir etish, qo‘zg‘aluvchablik, terapiya, anglash.

ANNOTATION

The modern citizen is one of the main participants of the fundamental changes taking place in our life, he is a specialist with mature and deep knowledge in all aspects. The article analyzes the psychocorresional activity. In the context of socio-economic stability, there is an increase in migration around the world, which increases the instability of stable emotional states, which are an important element of consciousness in victims of human trafficking. In critical situations, people feel the need for psycho-emotional safety, and the increase in this need leads to a disturbance in their emotional state, i.e., anxiety, mood swings, and emotional distress. Changes in the emotional sphere are one of the most common causes of deviations in mental development and cause a significant amount of difficulties in the life process. In this case, the victims of human trafficking have unstable negative thoughts and feelings, which do not reflect the true state of the situation around them; a person experiences anxiety, fear, low self-esteem, feelings of worthlessness and guilt. The article analyzes the psychotherapeutic activity of a psychological consultant with victims of human trafficking.

Key words: consultant’s personality, anxiety, personality, emotion, stress, affect, excitability, therapy, awareness.

Odatda, odam savdosidan jabrlanganlarga yordam ko‘rsatuvchi tashkilotlar odam savdosidan jabrlanganlarning himoyachisi sifatida ish olib borishlari, ularga huquqiy masalalar yuzasidan tegishli maslahatlar berishlari, tibbiy yordam ko‘rsatishlari va davlat organlari bilan bu borada doimiy aloqada bo‘lishlari lozim. Aynan mana shunday ishlarni amalga oshirish uchun tuzilgan nohukumat tashkilotlari mavjud. Amalda esa ular ko‘pincha odam savdosiga qarshi kurashning oldingi qatorida turib harakat qilishlariga to‘g‘ri kelmoqda. Dastlab ularning ko‘pchiligi og‘ir ahvolga tushib qolgan ayollarga va muhojirlik masalalari bo‘yicha qiynalayotgan insonlarga yordam ko‘rsatish maqsadida tuzilgan edi. Nodavlat tashkilotlarining esa bu boradagi olib borayotgan faoliyati odam savdosidan jabrlanganlarga davlatlar tomonidan jiddiy e’tibor beriliishiда katga rol o‘ynadi. Ularning ayrimlari bir qator davlat arboblari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining e’tiborini bu masalaga qaratishga va unga qarshi kurashda shaxsan ipggirok etishlariga muvaffaq bo‘ldilar. Juda ko‘p davlatlarda odam savdosiga qarshi kurashda nodavlat tashkilotlari bilan davlat organlarining hamkorligi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan va bu o‘zining samarasini berayotir. Masalan, ayrim hollarda nodavlat tashkilotlarining vakillari politsiya bilan birga odam savdosidan jabrlanganlar joylashgan obektlarga birga chiqmoqdalar. Bu esa o‘z navbatida jabrlanganlarning o‘zlariga nisbatan bunday jinoyatni sodir etgan shaxslarga nisbatan ko‘rsatma berishlarida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bundan tashqari, ko‘pgina nodavlat tashkilotlari aholi o‘rtasida targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishda ham faol harakat qilmoqsalar. Bu esa odam savdosi bilan bog‘liq murakkab vaziyatlarni oldini olishda katta rol o‘ynamoqda.

Odam savdosiga qarshi kurashnng eng samarali usullaridan biri bu — xalqaro hamkorlik bo‘lib hisoblanadi. Ushbu hamkorlikni tashkil qilish uchun avvalo milliy huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilishi lozimdir. O‘zaro xalqaro xatti-harakatlar va xalqaro ham- korliklarsiz chegaralarni kesib o‘tuvchi pinhoniy savdo-sotiq, ayniqsa, odam savdosi kabi turli jinoyatlarni bartaraf etib bo‘lmaydi.

Shuning uchun davlatlar transmilliy jinoyatlarga qarshi kurashda bir-birlariga o‘zaro yordam berishlari lozimdir.

Ikki tomonlama, mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi kelishuvlar sonining ortishi shuni ko‘rsatmoqdaki, huquqni muhofaza qiluvchi va sud organlarining hamkorligi orqali transmilliy jinoyatlarga qarshi samarali kurash olib borish mumkin. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘zaro huquqiy yordam ko‘rsatish, jinoyatchilarni ushlab berish borasida tuzilgan maxsus shartnomalar, ikki tomonlama kelishuvlar ayrim hollarda o‘zining samarasini berayotgan bo‘lsa-da, BMT tomonidan qabul qilingan bir necha konvensiyalar davlatlar uchun odam savdosi bilan bog‘liq muammolarni hal etishga qaratilgan milliy qonunchilikni yaratishda xalqaro huquqiy baza bo‘lib xizmat

qiladi. Shu bilan birga mazkur konvensiyalar odam savdosining turli ko‘rinishlariga qarshi kurashda o‘zaro hamkorlik qilishni xohlagan davlatlar uchun o‘ziga xos huquqiy asos ham hisoblanadi. Bu borada eng muhim hisoblangan konvensiyalarga:

BMTning transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi;

Odam savdosi bilan bog‘liq muammolarni hal etishga jidsiy qaror qilgan davlatlar buning uchun «Uyushgan jinoyatchilik to‘g‘risida»gi Konvensiya va u bilan bog‘liq bo‘lgan «Odam savdosi to‘g‘risida»gi Bayonnomalar to‘g‘risidagi Bayonnomani ratifikatsiya qilish va amalga oshirish lozim ekanligini anglab yetmoqdalar.

«Uyushgan jinoyatchilik to‘g‘risida»gi Konvensiya transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashning umumiy qoidalarini belgilab bersa, yuqorida tilga olingan ikki Bayonnomalar ushbu jinoyatlarga qarshi kurashning aniq masalalariga bag‘ishlangandir. Mazkur bayonnomalarning har biri Konvensiya bilan birgalikda qo‘llanishi lozim.

«Uyushgan jinoyatchilik to‘g‘risida»gi Konvensiya va odam savdosi to‘g‘risidagi bayonnomalar minimal standartlarni belgilab beradi. Ishtirokchi-davlatlar ushbu standartlar doirasida harakat qilishlari lozim. Shunday bo‘lsa-da, sharoit taqozosiga ko‘ra ular bundan boshqa choralarini ham qo‘llashlari mumkin. Masalan, odam savdosi to‘g‘risidagi milliy qonunchiliqda bu boradagi jinoyatlar odam savdosi to‘g‘risidagi Bayonnomaning 3-moddasi a) bandida ko‘rsatilganidek belgilanishi lozim, lekin milliy qonun chiqaruvchi organ tomonidan boshqa jinoiy harakatlar ham bu ro‘yxatga kiritilishi mumkin.

«Uyushgan jinoyatchilik to‘g‘risida»gi Konvensiya va odam savdosi to‘g‘risidagi bayonnomalar davlatlar uchun odam savdosi bilan bog‘liq muammolarni kompleks darajada hal qilish imkonini beradi. Bu muhim ahamiyat kasb etadi, chunki odam savdosi bilan bog‘liq harakatlar uyushgan jinoyatchilikning bir ko‘rinishi xolos. Ya’ni, bu jinoyat shug‘ullanayotgan jinoiy guruhlari nafaqat odam savdosi, balki boshqa turdagи jinoyatlar, masalan, muhojirlarni noqonuniy olib kirish, narkotiklar, qurol-yarog‘ savdosi kabi jinoyatlar bilan ham shug‘ullanadilar. «Uyushgan jinoyatchilik to‘g‘risida»gi Konvensiya bu boradagi jinoiy-qidiruv va tergov harakatlarini hattoki, boshqa davlatlar hududida ham olib borish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1. Афанасьев В.Г. Человек в управлении обществом. – М., 2000*
- 2. Васильев И.А. Магомед-Эминов М.Ш. Мотивация и контроль за действием. – М.: Изд-во МГУ, 1991.*
- 3. Махмудова Д.А. Консультатив психология ва психокоррекция. . – Т., 2019.*
- 4. Нартова-Бочавер С.К. Человек суверенный СПб ПИТЕР 2008.*
- 5. Елисеев О.П. Практикум по психологии личности. – 2-е изд., испр, и перераб. – СПб.: Питер, 2007*